



**“SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI:
NAVOIY VA SHEKSPIR”**
mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya
materiallari
2022 yil, 22-iyun



**Articles of international scientific-theoretical
conference on
“EAST-WEST RENAISSANCE LITERATURE:
NAVOI AND SHAKESPEARE”
June 22, 2022**

TOSHKENT - 2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
JAHON ADABIYOTI VA UNIVERSAL ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**"SHARQ-U G'ARB RENESSANS ADABIYOTI:
NAVOIY VA SHEKSPIR"**
*mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya
materiallari
2022- yil, 22-iyun*



MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVOI TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE

FACULTY OF UZBEK PHILOLOGY

DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND UNIVERSAL
LITERARY STUDIES

Articles of international scientific-theoretical conference on
**"EAST-WEST RENAISSANCE LITERATURE:
NAVOI AND SHAKESPEARE"**

June 22, 2022

TOSHKENT – 2022

UDK 821.512.133.08-03

KBK 84(50')

“Sharq-u G‘arb Renessans adabiyoti: Navoiy va Shekspir” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: “Firdavs-Shoh nashriyoti”, 2022-y. 700 b.

ISBN 978-9943-8307-1-4

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Fatma Achik (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Munavver Tikcan (Turkiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Jannat Aymuxambet (Qozog‘iston), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Iroda Siddiqova (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

Mazkur “Sharq-u G‘arb Renessans adabiyoti: Navoiy va Shekspir” mavzuidagi tadqiqotlar to‘plamida jahon xalqlari Renessans adabiyotiga oid komparativistik muammolar haqida so‘z yuritilgan. To‘plamning “Sharq-u G‘arb adabiyoti genezisi va umumnazariy muammolari”, “Navoiy va Shekspir: poetik o‘ziga xoslik, ijodiy universallik”, “G‘arb adabiyotida Sharq mavzusi talqinlari”, “Sharq va G‘arb adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida” singari bo‘limlaridan jahon adabiyotshunosligi, adabiy tanqidi tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik masalalaridan bahs yurituvchi maqolalar o‘rin olgan. Eng muhimmi, chop etilgan tadqiqotlarning barchasida jahon Renessanslari tarixi va Uchinchi Renessansni bunyod etish muammolari xususida fikr yuritiladi.

Ilmiy to‘plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy abiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislar, shuningdek, barcha adabiyot ixlosmandlari uchun mo‘ljallangan.

Ushbu to‘plamda “Sharq-u G‘arb Renessans adabiyoti: Navoiy va Shekspir” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumanga yuborilgan maqolalar jamlangan.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2022-yil 15-iyundagi navbatdan tashqari yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Editor-in-Chief:

*Shuhrat Sirojiddinov,
doctor of philological sciences, professor*

Editors:

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Fatma Achik (Turkey), Uzok Jurakulov (Uzbekistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Munavver Tikcan (Turkey), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqa Yorkin (Afghanistan), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Jannat Aimukhambet (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (Uzbekistan), Iroda Siddikova (Uzbekistan), Gulnoz Khallieva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

The materials of conference of “East-West Renaissance Literature: Navoi and Shakespeare” is regarding the comparative problems of Renaissance literature of world literature. The collection consists of chapters such as “Genesis and general theoretic problems of Eastern and Western literature”, “Navoi and Shakespeare: poetic originality, creative universality”, “Interpretations of The East in Western literature”, “Eastern and Western literature in the context Comparative Literature” including articles on world literature, history of literary criticism, comparative literature. Most importantly, all of the published research focuses on the history of the world Renaissance and the problems of building the Third Renaissance.

The collection can be fruitful source for specialists studying literary theory, literary criticism, literary history, comparative literature, translation theory, translation studies, as well as for all people who is fond of literature.

This collection includes papers submitted to the International Scientific-Theoretical Conference “East-West Renaissance Literature: Navoi and Shakespeare”.

The collection was recommended for publication by the decision of the meeting of the Scientific and Technical Board of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi on June 15, 2022.

The views of the authors may differ from the point of view of the editors.

Шоира АХМЕДОВА,
филология фанлари доктори, профессор
(БухДУ, Ўзбекистон)

ГЁТЕ. ШАРҚҚА МУҲАББАТ

Аннотация: Ушбу мақолада улуғ олмон шоири И.Гётенинг Шарқ адабиёти ва унинг буюк шоирларига бўлган муносабати ҳақида фикр юритилади.

Abstract: This article discusses the great German poet I. Goethe's Eastern literature and his attitude to the great poets.

Калит сўзлар: олмон шеърияти, Шарқ, ғазалнавис, хамсанавис, Ғарбу Шарқ девони, шоир, файласуф, ўзаро таъсир

Keywords: German poetry, East, ghazal writer, hamsanavis, West-East office, poet, philosopher, interaction

Буюк олмон шоири, файласуфи, жаҳон адабиётининг такрорланмас даҳоси Гёте бутун ижоди давомида Шарққа алоҳида ҳурмат билан қараганини унинг “Ғарбни Шарқдан ҳеч ажратиш мумкин эмас” деган сўзларида кўриш мумкин. “Гёте наздида Шарқ шеърияти, Фирдавсий. Саъдий, Ҳофиз, Румий ижоди - “Хизр чашмаси. У ҳамиша мусаффо ва равон, ундан ҳаёт нафаси уфуриб туради. Бу руҳ ва ижод манбаи, севги ва қўшиқ салтанати...”[4,14]. Шунинг учун Гёте руҳан Шарқ шоири бўлиб қолган. Буни Гётенинг Низомий ижодига бўлган муносабати ҳам яққол кўрсатади.

Низомий Ганжавий ва Алишер Навоий ижоди Шарқ адабиётидагина эмас, бутун жаҳон адабиётига чуқур таъсир изларини қолдирган. Бунинг далили сифатида машҳур немис олими, шоири, файласуфи И.Гётенинг Низомийга берган юксак баҳосини, уни ўзига нисбатан устун қўйганлигини эслаш кифоя. Низомий ўзининг “Ғарбу Шарқ девони”нинг “Низомий” сарлавҳали фаслида ёзадики, Низомий “энг чуқур муҳаббатнинг энг самимий муносабатларини ўз шеърлари учун материал қилиб сайлаб олган,- Фирдавсий бутун қаҳрамонлик ривоятларини тугатганлигига кўра, нафис, юксак истеъдодли руҳдир. У, Мажнун билан Лайли, Хисрав билан Ширинни – севишганларни тасвир этади; булар бир-бирининг васлига, ҳиссиёт, толеъ, табиат, одат, майл, эҳтирос ичидан ўтиб бориб етиша оладилар; уларни бир-биридан ажратадиган инодчилик, тасодиф, мажбурият ва тажовуздир; улар яна ҳам гўзал бир ҳолда бирлаштириладилар ва сўнгги натижада

бу ва ё бошқа йўл билан тағин бир-биридан айрилади, узоклаштириладилар. Бу мазмундан ва унинг тасвиридан, ҳеч бир нарса билан таъмин бўлинмаган юксак бир саъй ўртага чиқади. Поэмалар ниҳоятда даражада гўзалдир, ниҳоят даражада кўп тарафлидир. Унинг бевосита ахлоқ вазифасига бағишлиланган бошқа шеърларида ҳам ана шундай жозибали ойдинлик ўзини кўрсатади. Инсонга икки маъноли кўрина оладиган ҳар нарсани у ҳамиша яна ҳам практик нуқтага келтириб чиқаради ва бутун сирларнинг энг яхши ҳаддини ахлоқ фаолиятида топади”[3,98].

Гёте асарларидаги маъно ва мазмун, ҳис-туйғу миллатимизга хослиги билан ажralиб туради.”Гётенинг таъбирича, жаҳон шеъриятида етти юлдуз деб унинг ўзи эътироф этган даҳоларнинг ҳаммаси Шарқ шоирлариdir. Шарқ оламидаги ана шу еттига юлдуз қаторида Саъдий, Ҳофиз, Низомий ва Навоийни санар экан, Гёте “мен уларнинг соясига ҳам арзимайман”,- деган”[5,4] экан.

Ҳақиқатан ҳам Гёте Шарққа, унинг алломаларига катта меҳр, ҳурмат билан қараган. Айниқса, ўзининг мақола, эссе ва шарҳларида Низомийни буюк Шарқ шоирларидан бири сифатида қўяди:

*Мука любви без любовный отрад,-
Это Ширин и Ферхад.
В мир друг для друга пришли,-
Это Меджнун и Лейли.....[1,29].*

Бу сатрларни Садриддин Салим Бухорий таржимасида (асл нусха – олмон тилидан) ўқиймиз:

*Муродга етмай лекин,
Ўтган Фарҳоду Ширин.
Яралган бир-бира-чун.
Лайли-ю, ошиқ Мажнун[2, 5].*

Низомийнинг Шарқда машҳур бўлган хамсачиликка асос солгани, адабий хазинасининг ғоят бой бўлгани, гўзал лирик шеърлари, уларнинг кўп қирралиги Гётени ўзига тортади, “Ишқнома”да ёзади:

*О, Низомий ишқ ганжига
Сен охир топдинг калит.
Чидай олса ким ранжига*

Висолдан этсин умид.

“Олмон адиби нафақат Қуръони карим ва ҳадиси шарифларни, балки, умуман, Шарқ адабиёти, санъати ва маданияти, фалсафасини чуқур ўрганди ва айни чоқда Шарқ шоирларига эргашиб, уларнинг ғазалларига татаббуълар ёзди. Дарҳақиқат, “Девон”, “Шарҳлар”ни мутолаа этганимизда, Гётенинг Шарққа оид билими нақадар теран ва ҳар тарафлама мукаммал бўлганига ишонч ҳосил қиласиз... шунингдек Шарқ шеъриятининг энг буюк етти юлдузи – Фирдавсий, Анварий, Низомий, Румий, Саъдий, Ҳофиз, Жомийлар ижодига қисқа, лекин чуқур мазмунли тавсифни ўқиш мумкин”,-деб ёзади С.С. Бухорий “Ғарбнинг Шарққа ҳижрати” мақоласида[2,127].

Бу ҳақда Гётенинг ўзи ёзади: ” Менинг ниятим Ғарб ва Шарқни, ўтмиш билан ҳозирги замонни, форсий билан немисга алоқадор нарсаларни завқ-шавқ билан бир-бирига боғлаш ҳамда уларнинг урфодатлари, фикрлаш тарзини ўзаро бир-бирига боғлиқ олиб қарап, бирини иккинчиси орқали тушунишдир”[2,126].

Гёте “Зулайҳонома”нинг Зулайҳо китобида ҳам ўзини лол этган Шарқ шоирлари, жумладан, Низомий ҳақида Хотам тилидан шундай ёзади:

*Энди эса дилим ороми,
Ҳофиз, Саъдий, Низомий, Жомий,
Байтларини куйлайсан тақрор,
Бундан мен рашик этяпман, дилдор...*

Кўринадики, Гёте Низомий шеърияти, ижодига чуқур ихлос қўйган, унинг асарларини севиб мутолаа қиласан. Ҳатто Гётенинг таъсири остида немис шоирлари (Фридрих Рюккерт, Август Платен) ғазал жанрида ижод қиласан С.С.Бухорий “Ғазалнавис немис шоирлари” мақоласида очиб берган[2,135]. Олмонча ғазаллар ҳақида Гёте ўз котиби Й.П.Эккерманга шундай деган экан: “Ғазал табиати ғоят мукаммал мазмунни талаб қиласи. Бир хил оҳангда тақрорланадиган қофия учун ҳамжинс фикрларнинг катта хазинаси зарурдир; шу сабаб ғазал ёзмоқ ҳар кимнинг ҳам қўлидан келмас, лекин мазкур байтлар (Платен ғазаллари – Ш.А.) сизга манзур бўлади” [7,397]. Шунинг учун ҳам “*Аё мутриб! Қўшиқ айт, сўзда жондор, Ғазал кўҳна ва лекин навқирондор*” “Ҳофизнома” бобидаги “Бехудудлик” шеърида.

Олмон адиби бутун умр Шарққа ихлос билан қараган, шу билан берінде үзи севган Шарқ шоирлари (Хофиз, Низомий, Румий ва бошқалар)га әргашиб, уларнинг ғазалларига татаббуълар ёзган. Буюк Шарқ шоирларига бўлган чуқур хурмати буни яққол кўрсатиб турибди.

Адабиётлар:

1. *I. B. Гёте, B. B. Левик.* Западно-восточный диван / И. С. Брагинский, А. В. Михайлов. — М.: Наука, 1988. — С. 29—36. — 795 с. — ISBN 5-02-012704-3.
2. Йоҳан Вольфганг Гёте. Фарбу Шарқ девони. Олмон тилидан Садриддин Салим Бухорий таржимаси. Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2010.
3. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. Тошкент. “Ўзбекистон”. 1970,
4. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. Тошкент.”Маънавият”. 1999.
5. Сайдов А. Гёте “Фарбу Шарқ девони”: Шарқшуносликка кириш. Китобда: Йоҳан Вольфганг Гёте. Фарбу Шарқ девони. Олмон тилидан Садриддин Салим Бухорий таржимаси. Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2010.
6. Rufus E. Hallmark. German Lieder in the nineteenth century / Rufus E. Hallmark. — Taylor & Francis, 2009. — С. 19. — 434 с. — ISBN 0415990386, 9780415990387.
7. Эккерман Й.П. Гёте билан гурунглар. Тошкент. “O’zbekiston”, 2016.

MUNDARIJA

Shuhrat Sirojiddinov. UCHINCHI RENESSANS KONSEPSIYASINING
UNIVERSAL ASOSLARI (So‘zboshi o‘mida)..... 4

1-SHO‘BA. SHARQ-U G‘ARB ADABIYOTI GENEZISI VA UMUMNAZARIY MUAMMOLARI

<i>Uzoq Jo‘raqulov.</i> “ILMI BALOG‘AT”NING MANSHA’I	9
<i>Qozoqboy Yo‘ldosh.</i> O‘ZLIKNI TANISH YO‘LI	32
<i>Suvon Meli.</i> IKKI TOIFA ISHQ: “LAYLI VA MAJNUN”, “ROMEO VA JULETTA”	45
<i>Emek Üşenmez.</i> THE EXAMPLES OF MANUSCRIPT WRITTEN BY MĪR A’LĪ SHĪR NAVĀ’Ī (نوائی علیشیر میر) IN THE BRITISH LIBRARY	62
<i>Münevver Tekcan.</i> THE RITES OF BABUR THROUGH AS YOU LIKE IT BY SHAKESPEARE	80
<i>Dilmurod Quronov.</i> “JAHON ADABIYOTI” ATAMASINING BIZDAGI ANGLAMLARI HAQIDA MULOHAZALAR	88
<i>Nurboy Jabborov.</i> NIZOMIY VA NAVOIY IJOD KONSEPSIYASI XOSSALARI	91
<i>Shoira Axmedova.</i> GYOTE: SHARQQA MUHABBAT	103
<i>Merve Yorulmaz Kahve.</i> ALİ ŞİR NEVAÎ’NİN “İLK DİVAN”INDA YER ALAN DİNÎ KİŞİ ADLARI ÜZERİNE BİR DEĞERLENDİRME	107
<i>Nozliya Normurodova.</i> VERBAL EXPLICATION OF LITERATURE IN THE FRAMEWORK OF NEW DIRECTIONS	114
<i>Gulnoz Xalliyeva, N.Adambayeva.</i> SHARQ RENESSANSINING BUYUK VAKILI – XUSAYN XORAZMIY	119
<i>Baxtiyor Abdushukurov.</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA QO‘LLANGAN AYRIM SO‘ZLAR SEMANTIKASI	125
<i>Zhanat Aimukhambet, Marjan Mirazova.</i> ANALYSIS OF THE “ETERNAL IMAGE” IN THE POETRY OF ORIENTAL POETS	134
<i>Shavkat Hasanov, Usmon Qobilov.</i> ISHQNING MAKONI FANO, MANZILI BAQODIR	145
<i>Гусейн Тикаев.</i> ИСТОРИЧЕСКАЯ ХРОНИКА О ДРЕВНЕМ ВОСТОЧНОМ ГОРОДЕ ДЕРБЕНТЕ В ПЕРЕВОДЕ НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК	151

<i>Abduhamid Xolmurodov.</i> HOZIRGI ADABIY JARAYONDA IJODIY MUSHTARAKLIK	158
<i>Olim Oltinbek.</i> RAUF PARFINING SHEKSPIRONA SONETLARI	165
<i>Sanobar To‘laganova.</i> SHARQNING OLTIN KO‘PRIGI.....	173
<i>Nasiba Bozorova.</i> QONUN AXLOQQA ZID BO‘LSA....	180
<i>Adiba Davlatova.</i> ADABIY IZDOSHLIK AN’ANASI VA YANGILANISH EHTIYOJI	193
<i>Gulchehra Imomova.</i> SHARQ ADABIYOTIDA AN’ANAVIYLIK VA OBRAZ SATHIDAGI BADIY SINTEZ	199
<i>Ramilə Süleymanova.</i> NİZAMİ GÖNCƏVİ POYEMALARINDA HUMANİZM FƏLSƏFƏSİ	207
<i>Yulduz Ziyayeva.</i> NAVOIY VA SHEKSPİR: “OSHIQ-MA’SHUQA-RAQIB” UCHLIGI	211

2-SHO‘BA. NAVOIY VA SHEKSPİR: POETIK O‘ZIGA XOSLIK, IJODIY UNIVERSALLIK

<i>Umida Rasulova.</i> QUR’ONIY QISSALAR HIKMATI.....	218
<i>Komiljon Hamroyev.</i> “SADDI ISKANDARIY” VA “HAMLET”DA “BILIB QOLISH” MOTIVI	225
<i>Zilola Shukurova, Chinala Akmataliyeva.</i> PEHECCANSНЫЙ РЕАЛИЗМ В ЭПИЧЕСКОМ СТИЛЕ АЛИШЕРА НАВОИ.....	238
<i>Alisher Razzoqov.</i> ALISHER NAVOIY G‘AZALIYOTIDA “BUT” RAMZINING TASAVVUFİY TALQINLARI	246
<i>Murodil Mirzayev, Obidjon Karimov.</i> “SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTSHUNOSLIGI TARIXIDA POETIKA MASALASI TALQINI....	255
<i>Nigoraxon O‘rmonova.</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING G‘ARB TILLARIGA TARJIMALARI TARIXIDAN	261
<i>Bahor To‘rayeva.</i> «ASRNI QARITGAN KUN» – SHEKSPİR TRAGEDIYASIDAN BIR MISRA	265
<i>Suhrob Avezov.</i> FARHOD VA HAMLET OBRAZLARINING QIYOSIY TADQIQI.....	270
<i>Gulbahor Nazarova.</i> NAVOIY VA SHEKSPİR IJODIDA PARI OBRAZI TALQINI	276
<i>Xolida Qodirova.</i> SHEKSPİR SONETLARIDA BADIY VAQT TALQINI	282
<i>Xurshid Serobov.</i> ADABIY ASARLARDA ALISHER NAVOIY SIYMOSINI AKS ETTIRISH MASALALARI	288